



HUMAN
SCIENCES.UZ

www.humansciences.uz

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI
JOURNAL OF HUMANITIES
ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

2025

1-JILD | 1-SON

HUMANSIENCES.UZ

№ 1 (1)-2025

INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI

JOURNAL OF HUMANITIES

ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00 – TARIX FANLARI

Rajapov Mardonbek Qosimboy o'g'li
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
E-mail: mardonbekoff@gmail.com
ORCID: 0000-0002-5245-6021

Xaynazarov Baxromjon Baxtiyorovich
Tarix fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: bahrom_bek@mail.ru
ORCID: 0000-0002-1266-1557

Saidboboyev Zokirjon Abdulkarimovich
Tarix fanlari nomzodi (Ph.D.). Professor.
E-mail: zsaidboboev@yahoo.com
ORCID: 0009-0008-3960-2427

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Urdushev Xamrakul
Iqtisodiyot fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: x.urdushev@gmail.com
ORCID: 0000-0003-4984-0214

Berdiyarov Baxriddin Tavasharovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bahriddin.bfa@gmail.com
ORCID: 0000-0001-8591-6840

Avlokulov Anvar Ziyadullayevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: anvaravlokulovz@gamail.com
ORCID: 0000-0002-6683-8995

Norov Asror Egamberdiyevich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc).
E-mail: a.norov@ilmiy.uz

Ostonokulov Azamat Abdulkarimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: a.ostonokulov@tsue.uz
ORCID: 0000-0003-2792-3174

Rustamova Sayyora Xatamovna
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). V.b Dotsent.
E-mail: rustamova0302@mail.ru

Shadiyev Xamid Azimovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: su9795744@gmail.com

Nasirov Egamkul Ismailovich
Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: e.nosirov@tsue.uz
ORCID: 0000-0002-9355-1973

Kuliboev Azamat Shonazarovich
Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Dotsent.
E-mail: azamatkuliboyev@gmail.com
ORCID: 0000-0002-3357-070X

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Professor.
E-mail: bekiuz0302@yahoo.com
ORCID: <https://orcid.org/0000-0003-3260-3327>

Bekbaev Rauf Rustamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: rauf.r.bekbaev@gmail.com
ORCID: 0000-0001-5072-3379

Yusubov Jaloliddin Kadamovich
Falsafa fanlari doktori (DSc). Dotsent.
E-mail: yusubovjaloliddin@gmail.com
ORCID: 0009-0003-1401-7997

Yuldashev Nurbek Normurodovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta ilmiy xodim.
O'zbekiston.
ORCID: 0000-0002-4628-8789

Eshnazarova Farida Jo'raqulovna
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
E-mail: faridaeshnazarova4@gmail.com
ORCID: 0009-0000-2496-4443

Parpiyev Muxammadjon Tolibovich
Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent.
ORCID: 0009-0000-1869-9348

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Absalamova Gulmira Sharifovna
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: gulmirasharifovna@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6105-4752

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna
Filologiya fanlari nomzodi. Dotsent.
E-mail: salaxiddinovamusharraf@gmail.co
ORCID: 0000-0003-0534-5633

Ravshan Turakulovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Professor.
E-mail: docravshanniyazov@gmail.com
ORCID: 0000-0002-6146-1789

Sanakulov Zayniddin Ibodullayevich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
O'zbekiston.
E-mail: z.sanakulov@cspu.uz
ORCID: 0000-0002-6952-7738

Bawetdinov Muxammeddin Kazimbekovich
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD).
E-mail: b_muxammed@karsu.uz
ORCID: 0009-0007-9826-175X

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Ixombekov Jasurbek Ilxombek o'g'li
Yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Katta o'qituvchi. E-mail: jafarbek22@mail.ru
ORCID: 0000-0002-9867-3363

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: bahtiyor.haqberdiyev@mail.ru
ORCID: 0000-0002-2208-7827

Erkulova Feruza Melikuziyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: feruzaerkulovauzb@gmail.com

Shirnazarova Zamira Allaberdiyevna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: zamira.sh@terdpi.uz
ORCID: 0000-0001-9870-6295

Oymatova Nilufar Mirjamolovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: nilufar.oymatova@gmail.com

Eshchanova Xolida Xudayarovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: eshchanovaxolida@gmail.com

Karshieva Dilbar Eshpulatovna
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). Dotsent.
E-mail: d.karshiyeva1986@gmail.com

Raxmatov Otabek Urinbosarovich
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD). E-mail: rahmatov.otabek@inbox.ru
ORCID: 0000-0003-1288-3042

23.00.00 – SIYOSIY FANLAR

Turayev Abrar Saloxiddinovich
Siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).
Dotsent. E-mail: ijtimoiy2017@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1741-6857

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron
jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli
guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan
o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"
mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik
Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron
manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

MUNDARIJA

07.00.00-TARIX FANLARI

Muxammadiyev Akmal

TOSH XOMASHYOSI MANBALARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOY-IQTISODIY HAMDA
MADANIY HAYOTGA TA'SIRI6-16

Turdimuratov Yangiboy

ETNOTURIZM – IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISH OMILI 17-24

Xolmatov Shukurillo

AMERIKALIK TADQIQOTCHILAR TOMONIDAN MARKAZIY OSIYONI ARABLAR TOMONIDAN
ISTILO QILINISHINI O'RGANILISHI. TADQIQOTLAR TAHLILI 25-30

Qodirjonov Omadjon

IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHOTLARNING
ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI 31-36

Sodiqov Abduhalil

TURKIY XALQLAR UMUMIY MAFKURASINI SHAKLLANTIRISHDA ZIYOLILARNING ROLI:
YEVROOSIYO MINTAQASIDA TARIXIY VA ZAMONAVIY KONTEKST 37-48

07.00.00-IQTISODIYOT FANLARI

Turg'unov Muxriddin, Maxammadov Diyorbek

TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI MOLIVAVIY TAHLIL QILISH 49-52

Гаибназарова Зумрат, Сайдалиева Мубина

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ
УЗБЕКИСТАНА: АНАЛИЗ ПРИМЕНЕНИЯ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ, БАНКИНГЕ И
СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ 53-58

Khamraev Abdulkhofiz, Latipov Ashur

HR ANALYTICS IN INDUSTRY 4.0: FORECASTING AND MANAGING EMPLOYEE
PERFORMANCE THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE 59-62

10.00.00-FILOLOGIYA FANLARI

Salimova Gulnoza

THE ROLE OF PRAGMALINGUISTICS IN ENHANCING COMMUNICATION EFFECTIVENESS
WITHIN THE STEAM CONCEPT 63-67

13.00.00-PEDAGOGIKA FANLARI

Yavkochdiyeva Dilafruz

TA'LIM TEXNOLOGIYALARI" FANIDA "KREATOR" INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYASINI
QO'LLASH 68-75

Farsaxonova Mastura

O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'ZBEK XALQ ERTAKLARI, RIVOYATLARI VA BOLALAR
QO'SHIQLARI ORQALI 4K KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH 79-84

Raxmatov Otabek

SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDA SHAXSGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM
TEXNOLOGIYALARINING AMALIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI 85-91

Xamroyev Samijon

KASBGA YO'NALTIRILGAN TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA SPORT TO'GARAKLARI
ORQALI TALABALARNI JISMONIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH 92-99

19.00.00-PSIXOLOGIYA FANLARI

Abduraxmonova Zuhra

XORIJ PSIXOLOGIYASIDA SANOGEN TAFAKKUR XUSUSIYATLARI, FUNKSIYALARI VA
MEZONLARINING O'RGANILISHI100-106

**IRRIGATSIYA VA MELIORATSIYA SOHASIDA AMALGA OSHIRILGAN
ISLOHOTLARNING ANDIJON VILOYATIGA TA'SIRI****Qodirjonov Omadjon Tavakkaljon o'g'li**

Andijon davlat universiteti,

Tarix mutaxassisligi, 1-kurs magistranti

Email: qodirjonovomadjon15@gmail.com

Tel: +998973382427

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi e'lon qilingan vaqtdan beri amalga oshirib kelinayotgan irrigatsiya va melioratsiya sohasiga doir islohotlarning Andijon viloyatiga amaliy ta'siri, ilmiy manbalar va huquqiy normative hujjatlarga tayangan holda yoritilgan.

Kalit so'zlar: Havza, irrigatsiya, melioratsiya, kanal, ekologiya, irrigator.

**IMPACT OF REFORMS IMPLEMENTED IN THE FIELD OF IRRIGATION AND
LANDSCAPE ON THE ANDIZHAN REGION****Kodirjonov Omadjon Tavakkaljon ugli**

Andijan State University,

1st year master's student, History major

Annotation. This article discusses the practical impact of the irrigation and melioration reforms implemented since the declaration of independence of the Republic of Uzbekistan on the Andizhan region, based on scientific sources and legal normative documents.

Keywords: Basin, irrigation, land reclamation, canal, ecology, irrigator

KIRISH. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan davrdan boshlab mamlakat hayotining barcha jabhalarida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Shu jumladan, irrigatsiya va melioratsiya sohalari ham davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu yo'nalishdagi islohotlarning zarurligi bir qator omillar bilan izohlanadi. Avvalo, sovet davridan meros bo'lib qolgan irrigatsiya tizimlari XX asrning oxirlariga kelib jiddiy eskirgan, ularning texnik va texnologik holati zamonaviy talablar darajasiga javob bermay qolgan edi.

Bundan tashqari, so'nggi o'n yilliklarda global iqlim o'zgarishlari, suv resurslarining kamayishi hamda aholining keskin ko'payishi natijasida suvdan oqilona foydalanish masalasi dolzarb tus oldi. Ana shu sharoitda O'zbekiston hukumati tomonidan irrigatsiya va melioratsiya tizimini modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish hamda suv resurslarining boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan qator kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mazkur islohotlar mamlakat qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini ta'minlash, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash hamda ekologik muvozanatni saqlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aynan shu maqsadlarga qaratilgan islohotlar Andijon viloyatida ham

keng qamrovli tarzda amalga oshirilmoqda va bu viloyatning kelgusidagi rivojlanishida muhim ahamiyat egallaydi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng irrigatsiya va melioratsiya tizimini modernizatsiya qilish masalasi ilmiy hamjamiyat e'tiborida bo'lib kelmoqda. Mazkur yo'nalishda bir qator olim va tadqiqotchilar tomonidan sohaga oid ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lib, ularning ishlari ushbu maqolaning nazariy va metodologik asosini tashkil etadi. Oybek Komilov o'zining Gayratbek Haydarov bilan hammualliflikda yozgan "O'zbekistonda sug'orish tizimi modernizatsiyasi tarixidan" nomli maqolasida mamlakatda irrigatsiya tizimining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari hamda mustaqillikdan keyingi islohotlarning tarixiy jarayonini chuqur tahlil qilgan. Muallif irrigatsiya tizimi evolyutsiyasini tarixiy-geografik nuqtai nazardan o'rganib, sovet davridan meros qolgan tizimlarning eskirgan texnologiyalarini zamonaviy yondashuvlar bilan solishtiradi. Ushbu tadqiqot irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilishning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarini ochib berish orqali mazkur maqolaga muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [1. –B. 49-57.]. Anvarjon Kabulov esa Andijon Qishloq Xo'jaligi va Agrotexnologiyalar Instituti olimlari bilan hamkorlikda "aql-suv" (smart water) texnologiyalarining Andijon viloyati irrigatsiya tizimida qo'llanilishi bo'yicha amaliy yo'nalishdagi tadqiqotlar olib borgan. U o'z ishida suv taqsimoti va monitoringini raqamlashtirish, suv sarfini optimallashtirish hamda energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etishning samaradorligini amaliy tajribalar asosida ko'rsatadi. Mazkur tadqiqot natijalari irrigatsiya tizimini raqamli boshqaruv asosida takomillashtirish bo'yicha innovatsion yechimlar ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi [2. –B. 33–39.].

Yuqoridagi manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, irrigatsiya va melioratsiya sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar asosan tizimni modernizatsiya qilish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va boshqaruv samaradorligini oshirish masalalariga qaratilgan. Biroq Andijon viloyati misolida bu jarayonlarning tarixiy ildizlari, ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri hamda ekologik omillar bilan bog'liq jihatlari hali yetarlicha yoritilmagan. Shu boisdan, ushbu maqolada Andijon viloyati irrigatsiya va melioratsiya sohasida mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning tarixiy va tahliliy jihatlari o'rganiladi.

Metodologik jihatdan tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, tahliliy, hamda statistik-hududiy yondashuvlar qo'llanildi. Tarixiy-qiyosiy yondashuv orqali mustaqillikdan oldingi va keyingi davr irrigatsiya tizimlarining o'zaro farqlari aniqlanadi. Tahliliy metod esa hukumat qarorlari, dasturlar va ilmiy nashrlardagi ma'lumotlarni tizimli o'rganish imkonini berdi. Statistik-hududiy yondashuv yordamida esa Andijon viloyatida amalga oshirilgan irrigatsiya loyihalarining iqtisodiy va ekologik natijalari tahlil qilindi.

Muhokama.

O'zbekiston hukumati tomonidan 1991-yildan beri amalga oshirib kelinayotgan sohaga doir islohotlar maqsadi, sovet hukumati tomonidan yuritilgan mustamlakachilik siyosatining, qishloq xo'jaligidagi oqibatlarini bartaraf etishga va bugungi kunga kelib suv va oziq ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida sodir bo'layotgan suv taqchilligiga qarshi kurashishdan iborat. Sovet hukumati paxtaga bo'lgan ehtiyojlarini ekstensiv ravishda O'zbekiston hisobidan qondirishga harakat qilib kelgan va shu maqsadda hududdagi mavjud suv resurslarini rejasiz ravishda qishloq xo'jaligida foydalanib kelgan va buning oqibatida bir qator ekologik muommolar paydo bo'lgan. Sovet hukumati tomonidan oldindan oqibatlari

muhojama qilinmay, daryo suvlari ekologik talablarga javob bermaydigan eskicha kanal tizimlari orqali foydalanilayotgan bir vaqtda jahon mamlakatlari bunday tizimdan foydalanish kelgusi avlodlar uchun xavfli ekanligini anglab yetib bo'lgan edilar va kanallarni betonlash va bu orqali ortiqcha suv sarfidan halos bo'lish masalasini kun tartibiga qo'yib, ushbu muommoni hal qilish ustida amaliy ishlarni bajara boshlagan edi.

Bunga "All-American Canal System" misol bo'la oladi. Ushbu kanal tarixdagi birinchi keng ravishda betonlangan kanal bo'lib Kaliforniya shtatidagi 500 ming akr yerni sug'orish uchun mo'ljallangan [3]. E'tiborli jihati Amerikadagi ushbu kanal ham yangi yerlarni sug'orish uchun cho'l hududida qurilgan ammo sovet kanallardan farqli ravishda ekologik omilni hisobga olib beton qoplama bilan qoplangan va bu orqali ortiqcha suv sarfi oldi olinib, bugungi kunda ushbu hudud o'zlashtirilishi sababli ekologiyaga zarar yetkazilmayabdi. Oddiy kanalda oquvchi suvning 60 foizdan 80 foiz qismigacha qismi yo'qolishi mumkin [4. –B. 906.]. Betonlangan kanallarda esa bunday ortiqcha suv sarfi sodir bo'lmaydi. Bu orqali faqat ehtiyoj uchungina zarur bo'lgan suv sarflanadi, ortgan qismi esa tabiatga qaytariladi va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan ekologik falokatlarning oldi olinib insoniyat va tabiat uchun muhim bo'lgan suv resurslari saqlab qolinadi.

Boshqa tomondan esa aholi sonining global ravishda ko'payishi oqibatida butun dunyo miqyosida suv resurslari uchun jiddiy kurash kechmoqda. Tabiiyki bunday holatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish kun tartibida turgan asosiy masalaga aylanadi.

Natijalar.

1993-yil 6-may kuni qabul qilingan "suv va suvdan foydalanish to'g'risida" gi qonunning 111-moddasida "suvdan kompleks foydalanish va uni muhofaza qilishning bosh va havza jadvallari axolining va iqtisodiyot tarmoqlarining suvga bo'lgan istiqboldagi ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek, suvni muhofaza qilish va suv yetkazadigan zararli ta'sirlarning oldini olish uchun amalga oshirishi lozim bo'lgan asosiy suv xo'jaligi tadbirlarini va boshqa tadbirlarni belgilab beradi" [1. –B. 49.]. Bu esa shuni ko'rsatadiki O'zbekiston hukumati ekologik muommolarning oldini olishga harakat qila boshladi. Bundan tashqari keyingi yillarda ham bir qator qonun hujjatlari qabul qilinib, zaruriy chora tadbirlar amalga oshirishga kirishildi. Biroq ma'lum sabablarga ko'ra ushbu sohaga doir chora tadbirlarni keng qamrovli ravishda amalga oshirishning imkoni bo'lmadi.

2023-yil 29-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida qishloq xo'jaligi sohasida suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularni tejash hamda yo'qotishlarni kamaytirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi [5]. Mazkur yig'ilish mamlakatda suv xo'jaligi tizimini modernizatsiya qilish va samaradorligini oshirish masalalarining naqadar dolzarb ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor amalda tasdiqladi. Shu jumladan, yig'ilish yakunlariga ko'ra, suv xo'jaligi sohasida "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" deb e'lon qilindi [6] hamda 2024-yil davomida jami 1500 kilometr uzunlikdagi kanallarni beton qoplama bilan mustahkamlash vazifasi belgilandi [7]. 2023-yilga nisbatan ushbu ko'rsatkich to'rt barobarga oshirilgani mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarning keng ko'lamini ko'rsatadi [6].

Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining aholi eng zich joylashgan hududlaridan biri — Andijon viloyatida ham irrigatsiya va melioratsiya sohasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur hududda sug'orish tizimlarini modernizatsiya qilish zarurati bir qator obyektiv omillar bilan izohlanadi. Avvalo, viloyatda mavjud irrigatsiya tarmoqlarining

aksariyati sovet davrida ekstensiv usulda qurilgan bo'lib, ularning texnik va texnologik holati bugungi kun talablariga to'liq javob bermaydi. Natijada, suvning sezilarli qismi sizot va bug'lanish yo'li bilan yo'qotilmoqda, bu esa umumiy suv ta'minoti samaradorligini pasaytiradi.

Bundan tashqari, aholi sonining ortib borishi, dehqonchilik maydonlarining kengayishi va qishloq xo'jaligida suvga talabning ko'payishi mavjud resurslarga nisbatan bosimni yanada kuchaytirmoqda. Shu sababli, Andijon viloyatida irrigatsiya tizimlarini qayta qurish, mavjud kanallarni betonlash, suvni tejovchi texnologiyalarni (jumladan, tomchilatib sug'orish va smart-water tizimlari) joriy etish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar ko'rilmogda. Ushbu ishlar nafaqat suvdan samarali foydalanish, balki qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini ta'minlash va ekologik muvozanatni saqlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

2024-yilda mamlakat miqyosida e'lon qilingan "kanallarni betonlash bo'yicha zarbdor yil" dasturi doirasida Andijon viloyatida ham keng ko'lamli infratuzilma loyihalari amalga oshirildi. Davlat investitsiya dasturlari doirasida ajratilgan 46 milliard so'm miqdoridagi mablag'lar hisobidan viloyatdagi jami 41 kilometr magistral kanallarda betonlash ishlari olib borildi. Ushbu tadbirlar suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yo'qotishlarni kamaytirish hamda suv ta'minoti tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lib, viloyatning agrar sohasida muhim o'zgarishlarga zamin yaratdi.

Misol tariqasida, Andijon va Jalaquduq tumanlariga xizmat qiluvchi umumiy uzunligi 16,5 kilometr bo'lgan Qatortol kanalida amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin. Kanalning Andijon tumaniga qarashli qismida beton qoplama ishlari bajarilishi natijasida bu hududdagi 120 ta fermer xo'jaligining sug'orish suviga bo'lgan ehtiyoji muntazam va barqaror tarzda qondiriladigan bo'ldi. Shu bilan birga, suv sizib chiqishi va bug'lanish natijasida yuzaga keladigan ortiqcha suv yo'qotishlari sezilarli darajada qisqardi.

Mazkur ishlarning davomiyligi sifatida 2025-yilga kelib Qatortol kanalining yana 3,5 kilometr qismini betonlash ishlari rejalashtirilgan bo'lib, bu jarayon viloyatdagi suv xo'jaligi infratuzilmasining izchil modernizatsiyasi va meliorativ holatini yaxshilash yo'lidagi muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi [8].

2025-yil uchun Andijon viloyatida irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish yo'nalishidagi eng muhim loyihalardan biri — Andijonsoy kanalini betonlashtirish ishlari hisoblanadi. Mazkur kanal viloyat suv xo'jaligi tizimining markaziy bo'g'ini bo'lib, Andijon viloyatining qariyb uchdan bir qismini suv bilan ta'minlaydi. Boshqacha aytganda, Qo'rg'ontepa, Jalaquduq, Andijon va Oltinko'l tumanlaridagi keng qishloq xo'jaligi maydonlari hamda aholi tomorqalari aynan ushbu kanal orqali sug'orilmoqda. Shu sababli, Andijonsoy kanalining texnik holatini yaxshilash va suv yo'qotilishini kamaytirish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi.

Kanalning geologik tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, uning ostki qismi shag'al va yirik tosh qatlamlaridan tashkil topgan. Tabiiy sharoitda bunday qatlamlar suvni tuproqqa oson singdiradi, bu esa suvning sizib chiqish koeffitsientini oshirib, sug'orish samaradorligini pasaytiradi. Shu boisdan, 2025-yilda ushbu kanalning boshlang'ich qismi — Xonobod shahridan o'tuvchi 8 kilometr masofada betonlashtirish ishlari boshlab yuborildi.

Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil 26-avgust holatiga rejalashtirilgan ishlarning yarmidan ortig'i yakunlangan. Betonlash jarayonida kanalning eni 6 metr, chuqurligi esa 2,10 metr qilib qayta ta'mirlandi. Shu bilan birga, nishablik (gradiyent) darajasi texnik me'yorlarga mos tarzda optimallashtirilib, oqim tezligi va gidravlik barqarorlikni saqlab qolishga erishildi.

Natijada, kanalning umumiy o'tkazuvchanlik qobiliyati kamaymagan holda, u soniyasiga 50 kub metr hajmdagi suvni uzluksiz o'tkaza olish imkoniyatini saqlab qoldi.

Mazkur loyiha yakunlangach, Andijonsoy kanali orqali sug'oriladigan hududlarda suv ta'minoti sifati sezilarli darajada yaxshilanadi, suv isrofi kamayadi va yerlarning meliorativ holati barqarorlashadi, bu esa viloyat agrar sektorining samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida xizmat qiladi [9].

Xulosa.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida irrigatsiya va melioratsiya tizimlarini isloh qilish yo'nalishida chuqur strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayon xalqaro tajribalar va zamonaviy texnologiyalar asosida tashkil etilib, suv resurslaridan oqilona foydalanish, ularning taqsimotini takomillashtirish hamda qishloq xo'jaligida barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan. Suv xo'jaligi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida kanallarni betonlashtirish amaliyoti irrigatsiya tizimining samaradorligini oshirish, suv yo'qotilishini kamaytirish va meliorativ holatni yaxshilashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Mazkur yo'nalishdagi islohotlar, o'z navbatida, sovet davridan meros bo'lib qolgan irrigatsiya infratuzilmasining rekonstruksiysasi, ularni zamonaviy talablar asosida qayta qurish hamda barqaror suv ta'minoti tizimini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Ayniqsa, Andijon viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli betonlashtirish ishlari viloyat agrar salohiyatini oshirish bilan birga, suv resurslarining tejab-tergab ishlatilishiga ham bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Andijonsoy, Qatortol kabi yirik kanallarni beton qoplamalar bilan mustahkamlash natijasida suv yo'qotilishi sezilarli darajada kamaygan, natijada qishloq xo'jaligi yerlari va aholi tomorqalari suv bilan barqaror ta'minlana boshlagan.

Umuman olganda, kanallarni betonlash texnologiyalarining joriy etilishi O'zbekiston suv xo'jaligi siyosatining strategik yo'nalishlaridan biriga aylangan bo'lib, bu jarayon ekologik muvozanatni saqlash, agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda xalqaro standartlarga mos infratuzilma yaratish yo'lida muhim bosqichni tashkil etadi. Shu ma'noda, irrigatsiya tizimini modernizatsiya qilish bo'yicha olib borilayotgan ilmiy izlanishlar, davlat dasturlari va amaliy tajribalar uyg'unligi mamlakatning suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirishga, kelgusida esa barqaror va samarali suv siyosatini shakllantirishga zamin yaratmoqda.

Adabiyotlar/Литература/References

1. Komilov O., Haydarov G. O'zbekistonda sug'orish tizimi modernizatsiyasi tarixidan. // Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar - Scientific Bulletin. Humanitarian Studies. –Andijon. 2020. URL: <https://www.ajhuman.uz/article/447943745114/abstract>
2. Kabulov, A. Andijon irrigatsiya tizimida "aql-suv" (smart water) texnologiyalarini joriy etish samaradorligi // Andijon Qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti ilmiy axborotlari. –Andijon. 2024.
3. American society of civil engineers. All-American canal system. URL: https://www.asce.org/about-civil-engineering/history-and-heritage/historic-landmarks/all-american-canal-system?utm_source=chatgpt.com
4. Singh S., Varma R., Ray D.S. Study and Design of Cement Concrete Lining of Canal. // Journal of Harbin Engineering University. –Harbin. Vol. 44, No. 10. 2023.

5. Kun.uz. URL: <https://kun.uz/news/2023/11/29/suv-xojaligida-kanallarni-betonlash-boyicha-zarbdor-yil-elon-qilindi>.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/6894>
7. Gazeta.uz. URL: <https://www.gazeta.uz/uz/2023/11/30/water/>.
8. Mening yurtim telekanali. Hudud informatsion dasturi: "Joriy yilda Andijon viloyatida kanallar va sug'orish tarmoqlarini betonlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar" haqida lavha, —Toshkent, 2024 yil.
9. Andijon viloyat teleradiokompaniyasi. Andijon axborot informatsion dasturi: "Andijonsoy kanalini betonlash ishlari" haqida lavha. —Andijon, 2025 yil 26-avgust.

HUMANSIENCES.UZ***№ 1 (1)-2025*****INSONSHUNOSLIK FANLARI JURNALI****JOURNAL OF HUMANITIES****ЖУРНАЛ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

INSONSHUNOSLIK FANLARI elektron jurnali 2025-yil 6-iyunda 830912-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Muassis: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

TAHRIRIYAT MANZILI:

Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com